

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

OLTINSIMON QORAG'ATNING YANGI NAV VA DURAGAYLARIDA FENOLOGIK FAZALARINING O'TISHINI ILMIY TAHLIL QILISH

Abdullayeva Hilola Ravshanovna

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti, "Meva, rezavor mevalar seleksiyasi va nav o'rganish" bo'lim boshlig'i, q.x.f.d., professor

Email: hilola.abdullayeva@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-6341-0908>

Aytbayeva Difuza Rustamboy qizi

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti, "Meva, rezavor mevalar seleksiyasi va nav o'rganish" bo'lim 3-kurs tayanch doktoranti

Email: difuzaaytbayeva2@gmail.com

Annotatsiya. Qishloq xo'jaligida fenologik kuzatuvlarning ahamiyati juda katta. Asosan kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash: kimyoviy ishlov berish ko'pincha "kurtak yozilishidan oldin" yoki "gullashdan keyin" o'tkaziladi. Gullash paytida dorilash asalarilarga zarar yetkazishi mumkin. Oziqlantirish (O'g'itlash): Gullash va meva tugish davrida o'simlikka kaliy va fosfor, barg yozish davrida esa azot ko'proq kerak bo'ladi. Ayoqdan himoya qilish: Bahorgi qisqa muddatli sovuqlar (ayozlar) gullash fazasiga to'g'ri kelib qolsa, hosilni nobud qilmaslik uchun tutatish yoki sun'iy yomg'irlatish choralarini ko'rishga signal bo'ladi. Quyida hozirgi kunda Toshkent viloyati sharoitida yetishtirilayotgan oltinsimon qorag'atning ayrim nav va duragaylarining fenologik fazalarining qisqacha ilmiy tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Fenologiya, gullash, nav, ko'rsatkich, natija, vegetatsiya.

SCIENTIFIC ANALYSIS OF THE TRANSITION OF PHENOLOGICAL PHASES IN NEW VARIETIES AND HYBRIDS OF GOLDEN CURREN

Abdullaeva Hilola Ravshanovna

Academician Mahmud Mirzayev Research Institute of Horticulture, Viticulture and Winemaking, Head of the Department "Selection and Variety Study of Fruits and Berries", PhD, Professor

Aytbayeva Difuza Rustamboy qizi

Academician Mahmud Mirzayev Research Institute of Horticulture, Viticulture and Winemaking, 3rd year basic doctoral student, Department "Selection and Variety Study of Fruits and Berries"

Annotation. Phenological observations are of great importance in agriculture. Mainly disease and pest control: chemical treatment is often carried out "before budding" or "after flowering." Disinfecting during flowering can harm bees. Nutrition (Fertilizer): The plant needs more potassium and phosphorus during flowering and fruiting, and more nitrogen during leaf fall. Frost protection: If short-term spring frosts (frosts) coincide with the flowering phase, it serves as a signal to take measures for fumigation or artificial sprinkling to prevent crop loss. Below is a brief scientific analysis of the phenological phases of certain varieties and hybrids of golden currant currently grown in the conditions of the Tashkent region.

Keywords: Phenology, flowering, variety, indicator, result, vegetation.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i13/n05>

Hozirgi kunda dunyoda aholi sonining ortishi sifatli va vitaminlarga boy bo'lgan meva, rezavorlarga talabning o'sishiga ham ta'sir qilmoqda. Ayniqsa, rezavor mevali o'simliklar ichida alohida turuvchi oltinsimon qorag'at dunyo bo'yicha rezavor mevalar ichida oltinsimon qorag'at 25 ta mamlakatda yetishtiriladi. Yil mobaynida 650-700 ming tonna qorag'at ishlab chiqarilsa shundan, 95% mahsulotni Yevropa mamlakatlari ishlab chiqaradi. Eng yirik ishlab chiqaruvchi davlatlar Germaniya, Polsha va Rossiya hisoblanib, jami ulushning 77% ga to'g'ri keladi. Oltinsimon qorag'at mevasining shirin ta'mi, vitamin va minerallarga boyligi, turli xil kasalliklarga shifobaxshligi hamda, vegetatsiya davrida gullarining o'zgacha chiroyi va xushbo'y xidiga egaligi, manzaralilik jihatdan boshqa rezavor mevalar ichida alohida o'rin egallab turadi.

Tadqiqot materiallari va uslubi. Meva va rezavor mevali o'simliklarning navlarini o'sib rivojlanishi, xususiyatlari "Программа и методика сортоизучения плодовых, ягодных и орехоплодных культур" (Е. Н. Седова и доктора сельскохозяйственных наук Т. П. Оголсовой.) – Орел: Изд-во Всероссийского научно-исследовательского института селекции плодовых культур, 1999 г.) uslubi bo'yicha o'rganildi.

Natijalar va munozara. Toshkent viloyati sharoitida oltinsimon qorag'at navlarida vegetatsiya juda erta boshlandi. 2024-2026 yillar davomida havo haroratiga qarab navlarda kurtaklarning bo'rtishi fevral oyining ikkinchi dekadasi boshlandi. Oltinsimon qorag'atning "Plotnomyasaya" (nazorat) navida kurtaklarning bo'rtishi 2025-yilda o'rtacha 22 fevraldan boshlangan bo'lsa, "Do'stlik", "Ravshan" (15-50) va "Yadgor" navlarida nazorat naviga nisbatan ertaroq 3-6 kun oldin, ya'ni, kurtaklarning bo'rtishi 16-18 fevraldan boshlandi. Navlar ichida boshqa navlarga qaraganda "Eliksir", "Gulnoza" va "Oydin" navlarida kurtaklarning bo'rtishi (24/II) kechroq boshlandi.

Oltinsimon qorag'at navlarida kurtaklarning yozilishi o'rtacha ikki yillik kuzatuvda "Plotnomyasaya" (nazorat) navida 3-martda boshlangan bo'lib, kurtaklarning yozilishi nazorat navga qaraganda "Ravshan" (15-50) (28/II), "Yadgor" (28/II) va "Do'stlik" (1/III) navlarida oldinroq boshlandi. Nazoratga nisbatan kurtaklarning yozilishi kechroq boshlangan navlar bu "Oydin" (5/III), "Eliksir" (5/III), "Gulnoza" (7/III) navlarida kuzatildi.

Oltinsimon qorag'at navlarida gullashning boshlanishi "Plotnomyasaya" (nazorat) navida 21-martda kuzatilgan bo'lsa, "Ravshan" (15-50) (18/III), "Do'stlik" (19/III), "Yadgor" (19/III) navlarida nazoratga nisbatan 2-3 kun erta gulladi. "Oydin" (23/III), "Eliksir" (22/III) va "Gulnoza" (24/III) navlarida nazoratga nisbatan kechroq gullagani kuzatildi.

Oltinsimon qorag'at navlarida gullashning tugashi "Plotnomyasaya" nazorat navida 20-aprelda kuzatilgan bo'lib, "Yadgor" (17/IV), "Ravshan" (15-50) (16/IV), "Eliksir" (18/IV) va "Do'stlik" (18/IV) navlari nazoratga nisbatan 3-4 kun ertaroq gullashning tugagani kuzatildi. Boshqa navlarga nisbatan gullashning tugashi kechroq tugagan navlar bu "Oydin" (21/IV) va "Gulnoza" (23/IV) navlari bo'ldi.



1-rasm. Oltinsimon qorag'at navlaridagi gullash va meva pishish fazasi

Oltinsimon qorag'at navlarida mevalarning pishish boshlanishi "Plotnomyasaya" nazorat navida 26-mayda boshlanib, mevalarining pishishni tugashi 7-iyulgacha davom etdi. Navlar ichida pishishni boshlanishi "Do'stlik" (18/V), "Ravshan" (15-50) (22/V), "Yadgor" (22/V), "Gulnoza" (25/V) va "Oydin" (24/V) navlarida nazoratga nisbatan 4-8 kun erta boshlangan. Navlar ichida mevalarning pishish davomiyligi "Do'stlik" navida 32 kunni tashkil qilib boshqa navlarga nisbatan ertaroq tugagan. "Ravshan" (15-50) navida 43 kun, "Yadgor" navida 38 kun, "Oydin" navida 41 kun, "Elikir" navida 39 kun va "Gulnoza" navida 41 kunni tashkil qildi.

Oltinsimon qorag'at navlarida barglarning to'kilishi Plotnomyasaya, "Do'stlik", "Ravshan" (15-50) va "Yadgor" navlarilarida bir kunga (15/IX) ga to'g'ri kelgan bo'lib, "Elikir" (22/IX), "Gulnoza" (25/IX) va "Oydin" (26/IX) navlarida boshqa navlarga nisbatan barlarning to'kilishi 8-10 kun kech boshlangan.

Oltinsimon qorag'atning tadqiqot olib borilgan navlarida vegetatsiyaning boshlanishidan to barglarning to'kilib bo'lguniga qadar bo'lgan davr davomiyligi "Plotnomyasaya" (nazorat) navida 266 kunni tashkil qilgan bo'lsa, navlar ichida eng erta vegetatsiya davri tugagan nav "Ravshan" (15-50) 256 kunni tashkil qildi. Boshqa navlarga nisbatan kechroq vegetatsiya tamomlangan nav nazorat navida kuzatildi.

1-jadval

Oltinsimon qorag'at nav va duragaylarida fenologik fazalarining o'tishi (2025 y)

Navlar nomi	Vegetatsiya boshlanishi	Kurtaklarni yozilishi	Gullash		Mevalarining pishish		rangini Barglarning o'zgarishi	Tinim davrining boshlanishi (barglarni to'kilishi)		Vegetatsiya davomiyligi, kun
			boshla- nishi	tugashi	boshla- nishi	tugashi		boshlanis hi	tugashi	
Plotnomyasaya (nazorat)	22/II	3/III	21/III	20/IV	26/V	7/VII	17/VIII	15/X	15/XI	266
Do'stlik	16/II	1/III	19/III	18/IV	18/V	29/VI	12/VIII	15/IX	5/XI	262
Ravshan (15-50)	16/II	28/II	18/III	16/IV	22/V	2/VII	12/VIII	15/IX	30/X	256
Yadgor	17/II	28/II	19/III	17/IV	22/V	30/VI	11/VIII	15/IX	6/XI	262
Oydin	24/II	5/III	23/III	21/IV	24/V	5/VII	15/VIII	26/IX	12/XI	261
Eliksir	24/II	5/III	22/III	18/IV	26/V	5/VII	18/VIII	22/IX	12/XI	261
Gulnoza	24/II	7/III	24/III	23/IV	25/V	6/VII	17/VIII	25/IX	16/XI	265
№5-11	23/II	4/III	22/III	21/IV	19/V	6/VII	17/VIII	11/IX	6/XI	264
№13-17	17/II	2/III	20/III	17/IV	23/V	5/VII	11/VIII	14/IX	11/XI	262
№5-12	18/II	29/II	20/III	18/IV	27/V	4/VII	15/VIII	18/IX	15/XI	256
№13-16	19/II	27/II	18/III	14/IV	26/V	2/VII	16/VIII	14/IX	7/XI	262
№13-2	22/II	6/III	24/III	22/IV	27/V	6/VII	17/VIII	15/IX	16/XI	261
№15-5	22/II	6/III	23/III	17/IV	30/V	8/VII	18/VIII	7/IX	10/XI	261

№13-27	26/II	4/III	25/III	22/IV	25/V	3/VII	16/VIII	16/IX	14/XI	265
№13-7	24/II	5/III	22/III	21/IV	26/V	7/VII	17/VIII	21/IX	19/XI	265
3760/6	17/II	2/III	18/III	19/IV	3/VI	16/VII	21/VIII	28/IX	14/XI	266
3760/10	18/II	29/II	19/III	17/IV	2/VI	17/VII	21/VIII	26/IX	17/XI	263
3685/3	19/II	29/II	18/III	18/IV	5/VI	18/VII	22/VIII	21/IX	18/XI	257
3759/6	23/II	6/III	24/III	22/IV	1/VI	18/VII	23/VIII	23/IX	18/XI	263

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, oltinsimon qoragʻat navlarida barglarning toʻkilishi Plotnomyasaya, “Doʻstlik”, “Ravshan” (15-50) va “Yadgor” navlarilarida bir kunga (15/IX) ga toʻgʻri kelgan boʻlib, “Elikir” (22/IX), “Gulnoza” (25/IX) va “Oydin” (26/IX) navlarida boshqa navlarga nisbatan barlarning toʻkilishi 8-10 kun kech boshlangan. Tadqiqot olib borilgan navlarda vegetatsiyaning boshlanishidan to barglarning toʻkilib boʻlguniga qadar boʻlgan davr davomiyligi “Plotnomyasaya” (nazorat) navida 266 kunni tashkil qilgan boʻlsa, navlar ichida eng erta vegetatsiya davri tugagan nav “Ravshan” (15-50) 256 kunni tashkil qildi. Boshqa navlarga nisbatan kechroq vegetatsiya tamomlangan nav nazorat navida kuzatildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Володина Е.В. Программа и методика сортоизучения плодовых, ягодных и орехоплодных культур. / – Орел: изд-во ВНИИСПК, 1999. – С. 351-354.
2. Плотникова Л.С. “Методика фенологических наблюдений за интродуцированными древесными растениями”. (Методика фенологических наблюдений в ботан.садах. СССР.М.:Изд-во ГБС, 1972. 40-46 с
3. Qosimov A.A Oltinsimon qoragʻat navlarining xoʻjalik-biologik xususiyatlari va sifatli koʻchatlar etishtirish texnologiyasi. (Toshkent viloyati misolida) dissertatsiya, Toshkent-2020 y, 120 b
4. Abdullayeva X.R., Temirova G.B.- Oltinsimon qoragʻat nav va duragaylaridagi fenologik koʻrsatkichlar. Global iqlim oʻzgarishi va oziq-ovqat xavfsizligida oʻsimliklar genetikasi hamda eksperimental biologiyaning ahamiyati, Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 15-16 may, 2025 yil.264-269 bet.
5. Abdullayeva X.R., Qosimov A.A.- Studying the Drought-Resistance of berry plants. TELEMATIQUE ISSN; 1856-4194, Volume 24 Issue 1, 2025, 461-472, Web of science conference journal, <https://www.provinciajournal.com/index.php/telematique/article/view/1947>
6. Abdullayeva X.R., Temirova G.B., Qosimov A.A.- Oltinsimon qoragʻatning oʻsib rivojlanishi va fenologik fazalarining oʻtishiga foydali haroratning taʼsiri. “Oʻzbekistonda meva-sabzavot ekinlarini zamonaviy usullarda yetishtirish texnologiyalari va mahsulot sifatini hamda xosildorlikni oshirishning muammolari va yechimlari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. “Oʻzbekiston Agrar fani Xabarnomasi”, Axborot xati, Toshkent 2025-yil, 3-iyun.
7. Abdullayeva X.R., Temirova G.B., Qosimov A.A.- Toshkent viloyati sharoitidagi oltinsimon qoragʻat navlarining fenospektori. “Global iqlim oʻzgarishi sharoitida bogʻdorchilikni rivojlantirishning barqaror innovatsion texnologiyalari” respublika ilmiy-amaliy anjuman. 11-12 sentabr, 2025-yil.
8. Abdullayeva X.R., Temirova G.B.- Oltinsimon qoragʻatning morfo-biologik xususiyatlari. “Oʻrmonchilik va Dorivor oʻsimlikshunoslik sohasini rivojlantirishda olima ayollarning oʻrni” mavzusida oʻtkaziladigan I-respublika ilmiy-amaliy anjumani. “Oʻzbekiston agrar fani xabarnomasi” ilmiy jurnali. Toshkent. 2025-yil 27-mart
9. Abdullayeva X.R., Temirova G.B., Aytbayeva D.R.- Oltinsimon qoragʻat oʻsimligining foydali xususiyatlari va oʻziga xos belgilari. Xorazm Maʼmun Akademiyasi Axborotnomasi2025-1/1 Xiva-2025
10. Abdullayeva X.R., Temirova G.B.- Oltinsimon qoragʻat morfo-biologiyasi va yetishtirish agrotexnologiyasi. «Innovatsion rivojlanish nashriot-matbaa uyi» 2025-yil aprel. Tavsiyanoma

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.